

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13237085>

MEVACHILIK KORXONALARI BUXGALTERIYASINI BOSHQARISHNING NAZARIY MASALALARI

Baltabayeva Maloxat Ortikaliyevna

ФДУ, преподаватель, mo.baltabayeva@pf.fdu.uz

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada buxgalteriya hisobini yuritish uchun uning kelib chiqish tarixini o'rganish muximligi, uning xar hil sohada turli ko'rinishda bo'lsada negizi, asli o'xshashligi va turli sohalarda qanday qo'llanilishi tartibi bilan tanishamiz.*

***Kalit so'zlar:** mevachilik korxonalari, buxgalteriya hisobi, operativ texnika hisobi, statistik hisob.*

1590-yilda ispan olimi Bartalameo de Salazano tomonidan quyidagicha ta'kidlangan: «Buxgalteriya hisobi barcha fan va san'atlardan yuqori turadi, chunki hamma unga ehtiyoj sezadi, u esa hech kimga nisbatan ehtiyoj sezmaydi. Buxgalteriya hisobisiz dunyo boshqaruvsiz qolgan va odamlar esa bir-birlarini tushuna olmagan bo'lar edilar»¹

J.B.Dyumarche frantsuz olimi 1944 yilda buxgalterlar gerbini ixtiro qilgan. Gerb asosi uch shakldan iborat: Buxgalterlar gerbi XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi frantsuz olimi Jan Baptiste Dyumarche tomonidan shunday tasavvur qilingan.

- Quyosh – buxgalteriya hisobi, xo'jalik hisobini quyosh kabi yoritadi.
- Tarozi – buxgalteriya balansi.
- Bernulli egri chizig'i – hisob paydo bo'lgan va mangu qoladi.

Gerb atrofida “Fan, ishonch, Mustaqillik” so'zlari yozilgan.

¹ Соколов Я..В. История развития бухгалтерского учета. -М.: Финансы и статистика, 1985. с.60

Bu buxgalterlarning umumjahon shioridir. Ushbu gerb 1946 yilda bo‘lib o‘tgan buxgalterlarning umumjahon kongressida hisob ishchilari o‘rtasida xalqaro tamg‘a sifatida qabul qilingan.

Hisob deganda olingan ma‘lumotlardan ma‘lum bir amaliy yoki ilmiy maqsadlarda keyinchalik foydalanish uchun yoki boshqa voqealar, harakatlarni qayd etishni tushunmoq kerak, qayd olish orqali korxonalar, tashkilot, muassasaning xo‘jalik faoliyatini boshqarish, bu faoliyat ustidan nazorat qilish maqsadida faoliyatda yuz beradigan o‘zgarishlarni miqdorlarda aks ettirish yo‘li bilan tavsiflashdan iborat.

Xo‘jalik hisobining talablari:

1. Hisob va reja ko‘rsatkichlarining birligi (so‘m, rubl, ...).
2. Hisoblashning aniq va to‘g‘riligi.
3. Hisoblarning oddiy va tushunarli bo‘lishi.
4. Hisoblarning tejamkorligi.
5. Hisob ishlarini o‘z vaqtida amalga oshirishdan iborat.

Mevachilik korxonalarini xo‘jalik hisobi deb faoliyatning rivojlanish istiqbollari aniqlashtirish, uni boshqarish va nazorat qilish maqsadida shu jarayonni miqdoriy (qiymat, mehnat) aks ettirish va sifat jihatidan (o‘sdi, foydali) tavsiflashga aytiladi. Ushbu qoidaga ko‘ra korxonalar, tashkilot, muassasa buxgalteriya hisobini faoliyat hodisalarini raqam bilan nazorat qilish, miqdor, sifat jihatdan tasvirlab berish deb ta’riflash bo‘ladi.

Buxgalteriya (kitob yuritish) hisobida hodisalarni miqdoriy ifodalash uchun har xil o‘lchamlardan foydalaniladi:

- Natura o‘lchovi (20 ming tup anorlar ekildi);
- Pul o‘lchovi (650 mln. so‘mlik anor sotildi);
- Mehnat o‘lchovi (ishchilarning xar bir soat ish vaqtlari uchun 100 ming so‘mdan haq to‘landi).

Buxgalteriya hisobi:

1 – korxonalar, tashkilot, muassasa mablag‘larining joylashishi va ularning tashkil topish manbaalarida bo‘ladigan, o‘zgarishlarga olib keluvchi barcha xo‘jalik jarayoni va operatsiyalarini yoppasiga qayd qilish;

2 – bu jarayon va o‘zgarishlar ikki yoqlama yozish usuli bilan muntazam, uzluksiz va o‘zaro bog‘liq ravishda qayd qilinadi;

3 – yozuv faqat hujjatlar bilangina asoslanadi;

4 – barcha xo‘jalik operatsiyalari (kirim, chiqim) pulda aks ettiriladi.

Buxgalteriya hisobi mevachilik korxonalarida sodir bo‘layotgan xo‘jalik jarayoni va operatsiyalarini pul ifodasida, uzluksiz, to‘liq, o‘zaro bog‘langan holda hujjat bilan asoslangan holda aks ettirilishini ta‘minlaydi.

Hisoblar – operativ, statistik, buxgalteriya hisobini o‘z ichiga oladi.

Operativ texnika hisobi – masalan talabalarning darsga kelishini joriy kuzatish (fakultetga kirishda elektron va video hisobga olish)

Statistika hisobi – ma‘lum sanaga butun halq ho‘jaligi bo‘yicha, soha muassasa bo‘yicha ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlarini miqdoriy ifoda etish orqali o‘rganishdir (Farg‘ona viloyatidan 87 ming nafar yoshlar oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga qabul qilindilar).

Buxgalteriya hisobi – ma‘lum xo‘jalik yurituvchi sub‘ekt to‘g‘risidagi moliyaviy axborotni o‘lchash , ishlash va topshirishni amalga oshirish tizimi bo‘lib :

- dastlabki hisob (olindi, sotildi, keldi, ketdi, 1- bosqich, 4- bosqich)
- moliyaviy hisob (jamoatchilik, sheriklar va hodimlar uchun)
- soliq hisobi (soliq ob‘ekti, ba‘zasi, stavkasi, imtiyozi)
- boshqaruv hisobi (ichki foydalanuvchilar uchun)
- ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatish hisobini o‘z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish hisobining asosiy maqsadi mahsulot, ish va xizmatlarning tannarxini aniqlash (kalkulyatsiya)dir.

Buxgalteriya hisobi: - iqtisodiy fanlar (marketing va menejment, mikro iqtisodiyot, makroiqtisodiyot, iqtisodiy statistika, rejalashtirish, moliya, bank va kredit, sug‘urta, tarmoqlar iqtisodiyoti, raqamli iqtisodiyot va b.);

- huquqiy fanlar (Davlat va huquq, Fuqaro huquqi, Ma'muriy huquq, Mehnat huquqi, Moliyaviy huquq, Mulk huquqi);
- maxsus va tabiiy fanlar (Filosofiya, Matematika, Informatika, Statistika, Kibernetika, Madaniyat, San'at, Etika, Estetika, Aholishunoslik, Sanoat, Qishloq xo'jaligi, Geodeziya, Suv ta'minoti va boshqa fanlar)bilan bevosita bog'liq.

Buxgalteriya hisobi fanidan mustaqil fan bo'lib ajralib chiqqan fanlar: iqtisodiy tahlil, taftish va nazorat, sud-buxgalteriya ekspertizasi, elektron raqamli iqtisodiyot, audit, boshqaruv hisobi.

Buxgalteriya hisobining umum e'tirof etilgan printsiplari:

1. Ma'lumotlarning xizmatda foydalaniladigan (maxfiy) va hisobot ko'rinishida oshkora tavsiflarga ega bo'lishi;
2. Xo'jalik jarayonini yoppasiga qayd qilinishi;
3. Ikki yoqlama yozuv (kirim, chiqim);
4. Faqat hujjatlarga asoslanish;
5. Barcha xo'jalik operatsiyalari pulda ifodalanishi.

Xulosa o'rnida shuni aytmoqchimizki, buxgalteriya fani juda qiziqarli fan, buxgalteriya tilini yaxshi o'zlashtirgan hodim korxonalar holatini yaxshi tushunadi va korxonani moliyachilar singari yanada yuqori pog'onalariga chiqishda o'z hissasini qo'sha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Соколов Я..В. История развития бухгалтерского учета. -М.: Финансы и статистика, 1985. с.60:
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Buxgalteriya_hisobi:
3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 13.04.2016 yildagi O‘RQ-404-son. “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida:
4. Baltabayeva, M. O. (2024). FINANCE IS AN ECONOMIC CONCEPT. GOLDEN BRAIN, 2(4), 192-196. <https://webgoldenbrain.com/index.php/gb/article/view/43>;
5. Baltabayeva M.O. (2024). THE IMPORTANCE OF ACCOUNTING IN THE ACTIVITIES OF ENTERPRISES. Экономика и социум, (1 (116)), 88-91.